XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 30 - dekabr VI-71-156-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2023 yil 25 dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886 Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2023 yil 26 dekabrdagi 22-4-13/7529 sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq Qiziriq tuman mahaliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari **77 762 157** ming so‘m, xarajatlari **135 987 775** ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfyertlar **58 225 618** ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun mahalliy budjeti daromadlar prognozi ko‘rsatkichi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman Mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun tuman Mahalliy budjetiga viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfyertalar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1 208 098** ming so‘m miqdorida belgilansin.

9. 2024-yil tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **567 620** ming so‘m etib, 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2024-yil xalq deputatlari Kengashlarini Mahalliy budjetni boshqarishda xususan mahalliy budjet xarajatlarini xududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liqlig‘icha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

syement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yig‘imlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalaridan boshqa to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi;

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana sotuvi uchun aksiz solig‘i;

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Panjiyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Tilovmurodov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev), Kadastr agentligi tuman bo‘linmasi (S.Rustamov) 2024-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik”

xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Qiziriq tuman bo‘limi (A.Safarov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Tuman hokimligi tuman budjeti shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin.

18. Mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli tuman

hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

19. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Bo‘riyev), “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimov) ga Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari, boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini hamda tuman xokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

21. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman kengash raisi **Sh.A.Rajabov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2024 - yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliqlar va tushumlar**	**56 768 300,0**
1	Aylanmadan soliq	2 809 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	21 353 800,0
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	12 000,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	**Aksiz solig‘i, jami**	**9 399 000,0**
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*9 399 000,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 822 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 273 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1 076 500,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 242 000,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	10 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	39 000,0
12	Ijara to‘lovi	100 000,0
13	Yig‘imlar	2 632 000,0
II.	**Respublikadan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	**79 219 475,0**
Daromadlar hammasi		**135 987 775,0**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 - yil uchun Qiziriq budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parametr ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori Jami		**135 987 775,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**135 987 775,0**
	va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**18 457 363,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 457 363,0
2	**Sog‘liqni saqlash tashkilotlarga**	**59 300 235,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	59 300 235,0
3	**Madaniyat bo‘limi tashkilotlarga**	**3 269 916,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 269 916,0
4	**Sport bo‘limi**	**3 283 186,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 283 186,0
5	**Soliq inspeksiyasi**	**3 459 737,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 459 737,0
6	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 799 412,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 799 412,0
7	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 465 867,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 465 867,0
8	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 057 757,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 057 757,0
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 947 004,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 947 004,0
10	**Davlat hokimiyat organlari**	**5 642 539,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 642 539,0
11	**Xalq deputatlari kengashi kotibiyati**	**244 601,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	244 601,0
12	**Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	**1 921 700,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 921 700,0
13	**Yoshlar ishlari agentligi Qiziriq tumani bo‘limi**	**2 955 137,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 955 137,0
14	**Axborat kutubxona markazi**	**538 105,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	538 105,0
15	**Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armasi**	**13 916 090,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 916 090,0
16	**Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari**	**52 087,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	52 087,0
17	**Zahira jamg‘armasi**	**1 208 098,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 208 098,0
18	**Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 453 830,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 453 830,0
19	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**18 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 400,0
20	**Ijtimoiy ko‘niktirish markazi**	**50 065,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	50 065,0
21	**Obodonlashtirish boshkarmasini saqlash xarajatlari**	**12 946 646,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 946 646,0

Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
3-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetlariga 2024 - yil uchun ajratmalar me'yori

Foiz hisobida

Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan solig'i (faqat 3 111 401 daromad kodi)	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Yig'imlar	Ijara to'lovlari	Qishloq xo'jaligiga muldjalanmagan yer usastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo'jaligiga muldjalanmagan yer usastkalarni iaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromat kodi bo'yicha tushumlar)
Qiziriq tumani	100	100	100	100	65	50	100	100	100	50	100	100	50	50

Izoh:

* Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko'zda tutilmagan barcha tushumlar viloyat budjetiga yo'lantiriladi.

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
4-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetlarining 2024 - yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Qiziriq tumani	56 768 300	135 987 775

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
5-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2024 - yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
Qiziriq tumani	79 219 475,0	20 993 857,0

*tamaki,alkogol mahsulotlari, shu jumladan, piva (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-71-156-8-113-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 - yil uchun tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

Hudud nomi	**Miqdor**
Qiziriq tumani	567 620,0